# Buxoro viloyat statistika boshqarmasi

## 2019 yilning yanvar-fevral oylarida Buxoro viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

**RAQAMLAR:**

Sanoat ishlab chiqarish hajmi

**2192,6 mlrd so'm** — **o'sish sur'ati 103,3 %**

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi

**599,8 mlrd so'm** — **o'sish sur'ati 102,1%**

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **23,9 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan **2192,6 mlrd.so'm**lik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **103,3 %** ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 104,0 % ga, elektr, gaz, bug', bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 102,6 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 116,2 % ga o'sishi hisoblanadi.

**2019 yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda.**



## 2019 yilning yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o’sishiga qo’shgan hissasi

### *Tog’- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.*



Tog’- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar- fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **176,3 mlrd.so’m**ni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **8,0 %** ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo’iycha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog’-kon sanoati sohasidagi texnik xizmatlar –**102,4 %** ga oshgan. Xom neft va tabiiy gaz qazib olish – **92,8 %** ga, tog’-kon sanoati bilan bog’liq boshqa faoliyat – **91,8 %** ga kamayganligini kuzatish mumkin.



### *Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.*




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **74,5 mlrd.so’m**ni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **3,4 %** ni) tashkil etdi.

### *Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.*

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **23,1 mlrd.so’m** ni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,1 %** ni) tashkil etdi.



## *Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).*

Ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **1918,7 mlrd** so'mni (jami ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari hajmining 87,5 % ni) tashkil etdi.





### *Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.*

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **599,8 mlrd.so'm**ni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **102,1 %** ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa **27,4 %** ni tashkil etdi.

***2019 yilning yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***



**Tog’-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| 2018 yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019 yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Neft, ming t.** | | |
| 3,1 |  | 3,2 | 103,2 ↑ |
| | **Tabiiy gaz, mln.kub.m.** | | |
| 773,7 |  | 724,6 | 93,7 ↓ |
| | **Gaz kondensati, ming t.** | | |
| 10,7 |  | 8,3 | 77,6 ↓ |
| | **Shag’al , t.** | | |
| 3335,0 |  | 8660,0 | 259,7 ↑ |

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| 2018 yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan | Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari | 2019 yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan | O'sish sur'ati, % |
|---|---|---|---|
| | **Aroq (ming litr 100% spirt)** | | |
| 313,1 |   | 173,5 | 55,4 ↓ |
| | **Uzum musallasi (vino) (ming litr)** | | |
| 162,9 |   | 123,0 | 75,5 ↓ |
| | **Un mahsuloti (tonna)** | | |
| 11964,7 |   | 14180,8 | 118,5 ↑ |
| | **Paxta tolasi, ming t.** | | |
| 31,8 |  | 31,8 | 99,9 ↓ |
| | **O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.** | | |
| 6,2 |  | 6,1 | 98,4 ↓ |
| | **Avtomobil benzini, ming t.** | | |
| 124,3 |   | 100,5 | 80,9 ↓ |
| | **Dizel yoqilg'isi, ming t.** | | |
| 94,9 |  | 118,1 | 124,4 ↑ |
| | **Mazut, ming t.** | | |
| 12,9 |  | 12,1 | 93,8 ↓ |

**Yanvar -fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da**




| | Oziq-ovqat tovarlari | Nooziq-ovqat tovarlari |
|---|---|---|
| 2018 | 51,1 | 48,9 |
| 2019 | 36,9 | 63,1 |

2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 48,9 % dan 2019 yilning yanvar-fevral oylarida 63,1 % ga oshishi kuzatilmoqda.

***2019 yil yanvar –fevral oylarida Tuman (shahar)lar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmi***

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Qorovulbozor tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 41,6 %), Buxoro shahar (11,2 %), Romitan tumani (8,9 %), Gijduvon tumani (6,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



***2019 yil yanvar-fevral  oylarida tuman (shahar)lar kesimida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi***




Viloyat xalq iste'mollari ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Buxoro shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 24,8 %), Qorovulbozor tumani (19,9  %), G'ijduvon (8,9 %), Romitan tumani (4,2 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,6 %** ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa **23,9  %** ni tashkil etmoqda.

***2019 yilning yanvar-fevral oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %***




**Sanoat statistikasi bo'limi**

*Nashr uchun mas'ul: R.Esanova*

*Tel: 0(371) 230-83-05*